

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Karimova N.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada festival tushunchasining ilmiy va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Festivallar, jamiyatda turli madaniy, san'at, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim hodisalar sifatida o'rganiladi. Maqolada festivalning tarixiy rivojlanishi, uning jamiyatdagi roli, funktsiyalari, turli shakllari va ularning o'zaro aloqalari keng yoritilgan. Shuningdek, festival tushunchasining antropologik va madaniy nuqtai nazardan talqinlari keltirilgan. Festival nafaqat ma'naviy va madaniy meros sifatida, balki zamonaviy ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadigan madaniyatlar almashuvini ta'minlovchi hodisaga aylanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: festival, madaniyat, jamiyat, tarixiy rivojlanish, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar, antropologiya, festival turlari, festival funktsiyalari.

Аннотация: В данной статье анализируются научные и теоретические основы концепции фестиваля. Фестивали изучаются как важные события, отражающие различные культурные, художественные, социальные и экономические процессы в обществе. В статье широко освещается историческое развитие фестиваля, его роль в обществе, функции, различные формы и их взаимосвязи. Также представлены антропологические и культурные интерпретации понятия "фестиваль." Фестиваль станет событием, обеспечивающим обмен культурами, который имеет важное значение не только как духовное и культурное наследие, но и в современной общественной жизни.

Ключевые слова: фестиваль, культура, общество, историческое развитие, духовно-просветительские процессы, антропология, виды фестивалей, функции фестивалей.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the festival concept. Festivals are studied as important events reflecting various cultural, artistic, social, and economic processes in society. The article extensively covers the festival's historical development, its role in society, functions, various forms, and their interrelationships. Anthropological and cultural interpretations of the concept of "festival" are also presented. The festival will become an event that ensures cultural exchange, which is important not only as a spiritual and cultural heritage but also in modern social life.

Keywords: festival, culture, society, historical development, spiritual and educational processes, anthropology, festival types, festival functions.

Kirish. Festivallar insoniyat tarixida juda qadimiy davrlarga borib taqaladi va ularning jamiyatdagi roli davomiy o'zgarishlarga uchrab kelgan. Bugungi kunda festivallar nafaqat madaniy va san'at tadbirlari sifatida, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning faol shakllari sifatida ham namoyon bo'ladi. Ular milliy va xalqaro darajada katta ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning turli qatlamlari orasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash, turli madaniy qadriyatlarni birlashtirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, festivallar ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarning ko'zgusi sifatida, jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Festivallarni tashkil qilish asosan bir mavzu atrofida o'tkaziladigan tadbirlar jamlanmasi hisoblanib, uning bayramlardan farqli jihati shundaki bir vaqtning o'zida bir nechta bayram shaklidagi tadbirlar qamrab olinadi. Jumladan, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning natijasi sifatida aytish mumkinki, maqolani yozish jarayonida xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan festivallar o'rganilib, tahlil qilish metodidan foydalanildi. Bugungi kunda respublikamiz miqyosida ham bir nechta festivallar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, xalqaro festivallar: Baxshichilik san'ati festivali. Maqom san'ati festivali, Sharq taronalari festivali, "Lazgi" raqs san'ati festivali kabilarni misol keltirish mumkin. Bu festivallar nafaqat san'at va madaniyat almashiuvini balki davlatlar orasidagi diplomatik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari festivallarning jamiyat taraqqiyotidagi roli shundan iboratki:

- u har bir mamlakatda iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tizimlashtirishda;
- turizm salmog'ini oshirishda;

- har bir mamlakatning o'ziga xos moddiy va va nomoddiy merosini targ'ib etishda;

Festival qatnashchilarini moddiy va ma'naviy tomondan rag'batlantirish orqali ularni jamoatchilikka tanishtirish kabi muhim omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Festivallar jamiyat ijtimoiylashuvining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, u millatlararo hamdo'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. "Festival" atamasi Evropada ommaviy bayram shakli sifatida XVI asrda qo'llanilgan. Ma'lumki, bunday tantana 1709-yilda Londonda bo'lib o'tgan, ammo uning haqidagi batafsil ma'lumotlar saqlanmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asr boshlarida festival Markaziy Yevropaning ko'plab mamlakatlarida tarqaldi. XIX asr boshlarida romantiklarning o'rta asrlar davlati va

madaniyatiga bo'lgan qiziqishi musiqa va teatr festivallarini madaniy bayram sifatida o'tkazish g'oyasiga bilvosita ta'sir ko'rsatdi. Bu mexanik tabiiy fanlarga qarshi "romantik reaksiya" bilan bog'liq edi. Chunki ularning dunyoqarashida atomlar va sayyoralar harakati orasida insonning ruhiy dunyosiga e'tibor uchun o'rin topilmas edi. 1876-yilda R.Vagnerning "Nibelung halqasi" operasining tetralogiyasining sahnalashtirilishi Bayreyt festivalining tug'ilishini belgilab berdi. XX asr boshlarida festival turli shakllarda Yevropa mamlakatlarida va AQShda keng tarqaldi. Rossiyada festivalning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan narsa 1917-yilgi Oktyabr inqilobi va 1922-yilda Sovet Ittifoqining tashkil topishi bilan yuzaga kelgan sovet madaniyati bo'ldi. Ushbu madaniyat yangi g'oyalar, obrazlar va shakllarga ehtiyoj sezib, inqilobdan oldingi madaniyatga qarshi turishi kerak edi [1; 144-146].

Festival [fr. festival va ital. festivus bayramona, shod, quvnoq] san'atning musiqa, kino, teatr, sirk va b. sohalarida erishilgan eng yaxshi yutuqlar bo'yicha vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tanlov, ko'rikdan iborat ommaviy bayram, tantana, sayil [2: 369]. Festival – bu bolalar va yoshlarga oid ijtimoiy-madaniy faoliyatning dolzarb shaklidir. Lug'atlarda festivalning ancha o'xshash ta'riflarini topish mumkin: "festival" – bu ommaviy bayram, san'atning eng yaxshi yutuqlarini ko'rsatish va namoyish qilish: musiqa, teatr, kino va boshqalar; "festival" – bu ommaviy bayram, musiqa, teatr, estrada, sirk yoki kino san'ati yutuqlarini ko'rsatish (namoyish qilish).

P.V.Nikolaeva festivalni madaniyat bilan uzviy bog'langan holda ko'rib chiqib shunday deydi: "Madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u belgilovchi-kommunikativ tizim sifatida festival turli darajadagi muloqotning noyob namunasi bo'lib, samarali madaniyatlararo kommunikatsiya uchun imkoniyatlar yaratadi, natijada esa odamlar o'rtasida, ularning madaniyatlarni ifodalovchi vakillari sifatida, masalan, ijtimoiy, kasbiy, yosh, etnik va boshqa farqlarni o'z ichiga olgan farqlarni anglashga erishiladi". Birinchi evropalik festivallar san'at mavzusida muloqot qilish uchun sabab bo'lgan. Bunday muloqot ma'lum ijtimoiy doiralarda tashkil etilgan bo'lib, Yevropada tarbiyaviy harakati to'liqida paydo bo'lgan festivallar ham oliy sinfnig murakkab va nozik san'atini tarqatishni maqsad qilgan.

XIX asrning boshlarida festivalning madaniyat shakli sifatida shakllanishiga romantizm an'analari ta'sir ko'rsatdi. O'sha davr festivallari karnevalizatsiyaga qaytish urinishlari bilan tavsiflanadi [3: 242-246].

Afg'onistondagi Kandahor universiteti Tarix kafedrası tadqiqotchisi Enayatullah Dadman va Eroning Yazd universiteti Antropologiya kafedrası

tadqiqotchisi Saied Mohsen Saiedi Madani ilmiy ishlarida quyidagi tahlillarni ilgari suradi: Festival va bayram - bu ikki atama ba'zan o'xshash ma'nolarga ega bo'lgani sababli, noto'g'ri tushunilishi mumkin. Shuning uchun ular tez-tez almashtirib ishlatiladi. Albatta, bu ikki tushuncha o'rtasida farq mavjud. Festival - bu odamlar biror narsa uchun yig'ilib nishonlaydigan kun yoki vaqt davri. Bayramning maqsadi diniy yoki dunyoviy bo'lishi mumkin. Festival - bu har yili yoki doimiy ravishda bir shaharda bo'lib o'tadigan konsertlar, spektakllar yoki boshqa tadbirlar seriyasidir. Festivallar odatda biror mavzu atrofida tashkil etiladi. Festivallar oziq-ovqat, ichimliklar va kiyim bilan bog'liq qisqacha tadbirlar yoki dasturlar seriyasi bilan ajralib turadi. Oziq-ovqat festivallari, vino (alkogol) festivallari, musiqa festivallari, raqs festivallari, teatr festivallari va kiyim-kechak festivallari - yirik shaharlarda yil davomida o'tkaziladigan mashhur tadbirlardan faqat bir nechtasi. Boshqa tomondan, bayram - bu biror voqeani nishonlash uchun o'tkaziladigan tadbir. Shuning uchun, festival va bayram o'rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, bayram nishonlanayotgan voqeani tantana bilan eslab o'tishni maqsad qilgan bo'lsa, festivalda bunday maqsad mavjud emas. Festival, aksincha, an'anaviy yillik nishonlashdir. Bayramlar odatda jamoat joylarida o'tkaziladi va ko'plab kishilar ishtirok etadi, hatto ular individual yutuqlar va voqealarni nishonlayotgan bo'lsa ham.

Boshqa tomondan, festivallar har doim omma oldida o'tkaziladi, chunki ular keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan. Bayramlarga omma taklif qilinmaydi. Ular muvaffaqiyat yoki yutuqni nishonlashning bir qismi sifatida o'tkaziladi. Festivallar muvaffaqiyat yoki yutuqni nishonlash kabi o'ziga xos tarzda o'tkazilmaydi. Madaniy festivallar mamlakatlarning madaniy jarayonlarining aksidir va ular bir ma'noda vaqt, joy yoki mazmun nuqtai nazaridan dolzarblashgan san'at va madaniyat davrlarining mahsulidir, chunki ular ma'lum vaqtlar bilan mos keladi va hududiy ijtimoiy harakatlarga ta'sir ko'rsatgan. Joy esa, chunki manzara o'ziga xos o'ringa ega, va mazmun esa, diqqat va e'tiborni jamiyatga ta'sir qilishi kerak bo'lgan hodisalarga qaratishda muhimdir [4: 4-2].

Bayramlar bir necha ketma-ket kunlar davomida bo'lib o'tadigan turli tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda har yili va har doim bir xil umumiy joyda o'tkaziladi. Bayramlar bir mavzu, alohida qiziqish yoki jamiyatning ba'zi qiziqarli jihatlari atrofida tashkil etiladi. Ular odatda jamiyat va ko'ngillilar tomonidan tashkil etiladi, ammo ba'zi festivallar foyda keltiruvchi va notijorat tashkilotlar tomonidan yaratiladi va olib boriladi. "Festival" va "tadbir" so'zlari ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, lekin barcha tadbirlar bayramlar emas. Bu tadbirlar ko'proq ma'lum bir faoliyatga qaratilgan, davriy tadbirlardir. Bayramlar va

festivallar jamiyat tomonidan ramziy va jonli shakllarda tashkil etilgan muhim voqealardir va ular jamoaning va jamiyatning hayotini aks ettiradi, shuningdek, har qanday millatning eng muhim va jozibali qismlaridan biridir.

Xulosa. Bayram, insoniyat madaniyatining eng qadimgi shakli sifatida uzoq vaqt davomida o'rganish obyekti bo'lib kelgan, ammo bu tushuncha atrofida hozirgi kungacha yagona nazariy asos shakllanmagan. Bayram, madaniy makonning barqaror elementi sifatida, shu bilan birga jamiyatda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. O'zgarishlarga jamiyatning yangi qiymat yo'nalishlari, boshqa ma'nolarni qabul qilish va ularning "bayram" tushunchasida aks ettirilishi ta'sir qiladi. Lingvistik tadqiqotlar "festival" so'zini sinonim sifatida "bayram" so'zi bilan bog'laydi. Roman tillaridan tarjima qilinganda, u o'zining asosiy ma'nosiga qo'shimcha ravishda "ommaviy bayram" ma'nosini ham olgan va shu tarzda lug'atlar tomonidan mustahkamlangan. Festival – bu ommaviy bayram bo'lib, uning tarixi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Festivalning tarixi XVIII asrda, birinchi marta unga oid eslatmalar bilan boshlansada va u o'rta asrlarning bayram madaniyatiga bo'lgan qiziqish bilan bog'liqdir. Genetik jihatdan festival bayram marosimlari va xalq madaniyatiga yaqin bo'lsa-da, uning rivojlanishi urbanizatsiya va globalizatsiya davriga to'g'ri keldi. Festival o'zining formali belgilari bilan ajralib turadi: maydonning yopiq bo'lishi, o'tkaziladigan joyga bog'langanligi, asosan spektakl shaklida bo'lishi, ishtirokchilar orasida aniqlangan masofa va farq, shuningdek, festival ishtirokchilarining aktyorlar va tomoshabinlar sifatida ajratilishi.

Festivalning ichki psixologik tashkiloti spektakl marosimiga asoslangan bo'lib, uning asosi ekstatik voqeaviylikdir. Bu festivalga o'ziga xos ta'sir o'tkazishga, yorqin va esda qolarli bayram tadbiriga aylanishga imkon beradi, chunki u bir vaqtning o'zida alohida shaxsning psixikasiga va shu bilan birga odamlar jamiyatiga ta'sir qiladi.

Zamonaviy shakl va inson xulq-atvorining rivojlanishining avvalgi jarayonlarini uyg'unlashadi. Keling, festivalning marosimiyligini yanada batafsil ko'rib chiqamiz. Shahar muhiti ichida festival marosimga aylanadi, uning ijtimoiy-madaniy funksiyalari, masalan, jamiyatni birlashtirish va ichki agressivlikni kamaytirish, makon va vaqtni strukturallashtirish kabi funksiyalar ustunlik qiladi. Festival kundalik vaqt oqimini to'xtatib, tadbir mavzusiga e'tiborni jalb qilish imkonini beradi. Festivalning muqaddas va marosimiy ma'nolari orqaga suriladi, shu bilan birga ishtirokchilar festivalni birinchi navbatda ijodiy dialog sifatida, birlashish imkoniyati sifatida ko'rib chiqishadi va uni ko'proq dam olish shakli sifatida qabul qilishadi. Ushbu ehtiyojlar festival tomonidan ishtirokchilarni odatiy

kundalik dunyodan farqli, festival dunyosiga olib o'tish orqali qondiriladi. Bu bayram atmosferasiga ekzentriklik va o'yin erkinligi elementlarini qo'shadi [5: 53-65]. Festivallar tarixini ilmiy tahlil qilish orqali, biz ularning o'zgaruvchan tabiati, tarixiy rivojlanish jarayoni, zamonaviy jamiyatdagi rolini yanada chuqurroq tushunishimiz mumkin. Shu bilan birga, festivallarni o'rganish orqali biz ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni va ularning jamiyatdagi tasirini yaxshiroq tushunishga erishamiz. Ushbu mavzu ilmiy, madaniy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, madaniy festivallarni o'rganish va ular orqali yangi ilmiy nazariy yondoshuvlarni ishlab chiqish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri bo'lib, madaniy identitetning mustahkamlashiga va xalqaro madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Festivallar turli millatlar va madaniyatlar o'rtasida anglashuvni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Ular xalqaro miqyosda hamjihatlikni ta'minlash, etnik va madaniy farqlarni tushunish va hozirgi davrda xalqaro maydonda tinchlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Festivallar, ayniqsa zamonaviy dunyoda, jamiyatlarning ijtimoiy va madaniy hayotining muhim qismlariga aylangan. Ular individlarning madaniy va ijtimoiy identitetlarini shakllantirishda yordam beradi. Festival tushunchasini o'rganish nafaqat madaniyatshunoslik, balki sotsiologiya, antropologiya, iqtisodiyot va san'at sohalarida ham muhim ilmiy tadqiqotlarga asos bo'ladi. Bu jarayon, turli ilmiy sohalar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi va yangi nazariy yondashuvlar yaratishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari, festivallarni ilmiy va amaliy jihatdan tushunishning dolzarbligini va ularning ijtimoiy hayotdagi tasirini yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Николаева П. В. Фестиваль как этап эволюции праздничной культуры //Культурная жизнь Юга России. – 2008. – №. 2.
2. Madvaliev A. tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 369 b.
3. Тихомирова Г. Ю. Фестиваль как форма социально-культурной деятельности //Вестник Таганрогского института имени АП Чехова. – 2016. – №. 1.
4. Дадман Э., Мадани С.М. Исследуют концепцию фестиваля и праздника среди культурно-исторического здания. Индонезийский журнал социальных исследований. 2021; 4(2).
5. Токпан А., Еркебай А. С., Тургынбай Б. С. Фестиваль как инструмент обновления городов через культуру //Central Asian journal of art studies. – 2020. – Т. 5. – №. 1.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHİLÍĞİNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARINDA MUZIKA SABAQLARINDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

